
“YASHIL MAKON” UMUMIMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA XOTIN-QIZLAR FAOLLARI HAM FAOL!



“Yashil makon” umumimilliy loyihasini amalga oshirishda xotin-qizlar faollari ham faol!

So‘x tumani hududida “yashil makon” umumimilliy loyihasini amalga oshirish doirasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur xayrli ishlarda tuman mahallalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari ham o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shishayotir.

Bugun tuman mahallalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari tuman hokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Madinaxon Safarova boshchiligida tumanning Istiqlol mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi sanoat zonasida tashkil etilgan yer maydoniga 500 to‘pdan ortiq mevali va manzarali daraxtlar ko‘chatlarini ekishdi. Shuningdek, ekilgan mevali va manzarali daraxtlar nihollari qator oralariga malina ko‘chatlari o‘tqazildi.

So‘x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-25 16:28:59